

INSON HUQUQ VA ERKINLIKARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARINING O'RNI

Xidirov Furqat Shukurullayevich*

Annotatsiya: Qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari, jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjalariiga inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sud muhokamasini adolatli va o'z vaqtida o'tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi kafolatlarini kuchaytirishni inobatga olgan holda odil sudlov samaradorligini oshirish.

Абстрактный: Укрепление законности и правопорядка, дальнейшее реформирование судебной системы, обеспечение надежной защиты прав и свобод граждан, обеспечение верховенства прав и свобод человека в уголовных, уголовно-протесцессуальных, гражданских протесцессуальных и иных законодательных актах, обеспечение справедливого и своевременного осуществления судопроизводства, повышение эффективности правосудия с учетом усиления гарантий справедливости и гуманности наказания.

Abstract: Strengthening the rule of law and legality, further reforming the judicial system, ensuring the reliable protection of citizens' rights and freedoms, ensuring the primacy of human rights and freedoms in criminal, criminal procedural, civil procedural and other legislative acts, ensuring fair and timely conduct of court proceedings, and increasing the efficiency of justice, taking into account strengthening guarantees of the fairness and humanity of punishment.

Tayanch tushunchalar: jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjalariiga inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta'minlash, sud muhokamasini adolatli va o'z vaqtida o'tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi

* IIV Malaka oshirish instituti Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasи dotsenti, podpolkovnik

kafolatlarini kuchaytirishni inobatga olgan holda odil sudlov samaradorligini oshirish.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning hozirgi bosqichdagi muhim yo‘nalishlaridan biri - qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, inson huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirishdan iborat. Zero, sud - odil sudloving oliy nuqtasi va uning rolini oshirish huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi qonuniy jarayon, aynan shunday yondashuv tufayli bu sohadagi ishlar ko‘lami, miqiyosi va samaradorligi keyingi davrda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.

2001-yildan boshlab huquqni qo‘llash va sud amaliyotiga yarashuv instituti kiritilgan sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo‘ldi. O‘lim jazosi bekor qilinib, uning o‘rniga umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo turi joriy etilgani mamlakatimizda sud-huquq tizimini erkinlashtirish va yanada insonparvarlashtirish yo‘lidagi yana bir muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli chora-tadbirlar ko‘rildi. Bu borada «Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, ya’ni 2008-yildan ehtiyyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o‘tkazilishi, lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo‘llash amaliyoti joriy qilinganligi prinsipial qadam bo‘ldi. Bu fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz ekani, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi haqidagi konstitutsiyaviy norma amalda ro‘yobga chiqishining yaqqol ifodasidir.

Bundan tashqari, jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan ehtiyyot choralarining doirasi kengaytirildi. Ya’ni, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasi joriy etilib, shaxsga nisbatan uy qamog‘i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo‘llash va uning muddatini uzaytirish sudlar vakolatiga berildi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining jazo tizimiga alohida turdagи jazo sifatida ozodlikni cheklash jazosi

kiritildi.

E’tirof etish kerak, davlatimiz rahbarining sudlar tomonidan hukm qilingan mahkumlarni afv etish to‘g‘risidagi Farmonlari xalqimizning insonparvarlik, bag‘rikenglik, kechirimlilik kabi o‘ziga xos qadriyatlarining chin ma’nodagi yuksak namunasi bo‘lmoqda. Bunga joylarda mazkur hujjatning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlab o‘tkazilayotgan tadbirlar, aholi bilan bevosita muloqotlarda oddiy odamlar bildirayotgan minnatdorlik so‘zлari yaqqol misol bo‘la oladi.

Bundan ko‘zlangan maqsad - faqat mahkumlarni yoki bilib-bilmay jinoyatga qo‘l urgan shaxslarni jazodan ozod qilish emas, balki ular tufayli jabr tortadigan har bir oila va oila a’zolari, ayniqsa, o‘sib kelayotgan o‘g‘il-qizlarning kelgusi taqdirini hamda ularning kelajagini turli salbiy ta’sir va jiddiy sinovlardan himoya qilishdan iboratdir.

Uzoqqa bormasdan, so‘nggi yillar davomida sud-huquq sohasini isloh qilish borasida amalga oshirilgan islohotlarga to‘xtalsak.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini to‘liq hamda ishonchli himoya qilishni ta’minalash borasida yangi davrni boshlab berdi.

Jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik protsessual va boshqa qonun hujjatlariga inson huquq va erkinliklari ustuvorligini ta’minalash, sud muhokamasini adolatli va o‘z vaqtida o‘tkazish, jazoning adolatli va insoniyligi kafolatlarini kuchaytirishni inobatga olgan holda odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator o‘zgartishlar kiritildi.

“Xabeas korpus” instituti qo‘llanishini yanada kengaytirish doirasida prokurorlarning pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va eksgumatsiya qilish kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga sinksiya berish bo‘yicha vakolatlari sudlarga o‘tkazildi. Bu o‘zgartishlar insonning shaxsiy huquq va erkinliklari daxlsizligi, ulardan

sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emasligi haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga to‘la mos keladi.

Sudda ish yuritish tezkorligi va sifatini oshirish, ish bo‘yicha yakuniy qarorlar qabul qilish muddatlarini asossiz kechiktirishni bartaraf etish, sndlarning jinoyat protsessidagi rolini oshirishga qaratilgan yangilik sifatida sud tomonidan jinoyat ishini qo‘sishma tergovga qaytarish institutining bekor qilinganligini alohida ta’kidlash joiz.

Shuningdek, sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilagini qayta ko‘rib chiqishning amaldagi tizimini takomillashtirish, sud protsessi muddatlari va sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ortiqcha oraliq instansiyalarni bartaraf etish maqsadida viloyat darajasidagi sudlar tomonidan fuqarolik va jinoyat ishlarni nazorat tartibida qayta ko‘rish bo‘yicha bir-birini takrorlovchi instansiyalari tugatilib, o‘z navbatida tegishli sud raislari va prokurorlarning nazorat tartibida protest keltirish vakolati bekor qilindi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘rib chiqishga vakolatli bo‘lgan yangi sud tizimi, ma’muriy sudlar shakllantirildi.

Mamlakatimizda xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida hududlarda ishlarni birinchi instansiya da ko‘rib chiqishga vakolati bo‘lgan tumanlararo, tuman va shahar iqtisodiy sudlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi O‘zbekistonda sud hokimiyatini yagona tizim sifatida tubdan takomillashtirish, odil sudlovni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, inson huquq va erkinliklarini to‘liq hamda ishonchli himoya qilinishini ta’minlash borasida muhim hujjat bo‘ldi.

Farmonga muvofiq nomzodlarni tanlash va sudyalik lavozimiga tayinlash

tizimini tubdan takomillashtirish, sudyalarining mazkur jarayondagi ishtirokini kengaytirish, yuqori malakali sudyalar korpusini shakllantirish uchun mas’ul bo’lgan organning maqomi hamda vakolatlarini oshirish maqsadida sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlashga ko‘maklashadigan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi.

Bundan tashqari 2017-yil 1-iyundan e’tiboran Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudini birlashtirish yo‘li bilan fuqarolik, jinoiy, ma’muriy va iqtisodiy sud ish yurituv sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi - O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida 2018-yil 4-apreldagi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni bilan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga foydalanishni taqiqlovchi butunlay yangi – “Dalillarning maqbul emasligi” haqidagi 95¹-moddasi kiritildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan o‘zgartishlarga muvofiq, dalillarni soxtalashtirganlik (qalbakilashtirganlik) uchun Jinoyat kodeksi 230¹-moddasiga asosan jinoiy javobgarlik belgilandi, qynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llaganlik, yolg‘on guvohlik va yolg‘on xabar bergenlik uchun Jinoyat kodeksi 235, 237 va 238-moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik kuchaytirildi.

Bundan tashqari, o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishni, tintuv, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish, tergov eksperimentini videoyozyuv tarzida majburiy qayd etish to‘g‘risidagi, shuningdek, sud muhokamasi jarayonida stenografiya yuritish haqidagi talablar kiritildi. Dalillarni

to‘plash va mustahkamlashda ruxsat berilmagan usullar qo‘llanilganligi to‘g‘risidagi murojaatlar prokuror yoki sud tomonidan sud-tibbiy ekspertizasi yoxud boshqa ekspertiza o‘tkazgan holda majburiy tekshirilishi lozim bo‘lgan tartib belgilandi.

Sudlarning jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan ishlari qoniqarsiz darajada tashkil etilganligi sud faoliyatini lozim darajada yoritish imkonini bermayotganligi hamda aholining sud hokimiyatiga ishonchi pasayishiga olib kelayotganligi, shuningdek, sudyalarni moddiy ta‘minlash va ijtimoiy himoya qilishning amaldagi tizimi sud hokimiyatining alohida mavqeい va obro‘siga, sudyalar mustaqilligi prinsiplariga muvofiq emasligi kasbiy o‘sishni yanada rag‘batlantirishga to‘sinqlik qilib, kadrlar qo‘nimsizligiga olib kelayotganligi inobatga olinib, 2018-yil 13-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni qabul qilindi.

2020-yilning 24-iyul kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi Farmon sohada olib borilayotgan islohotlarning davomi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 avgustdagи "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarib, O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini to‘liq hamda ishonchli himoya qilishni ta‘minlash borasida yangi davrni boshlab berdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma’lumki, suda mustaqil bo‘lsa, qonunga so‘zsiz buysunsa, ma’suliyatni chuqur his qilsa, beg‘araz va xolis bo‘lgandagina adolat o‘rnataladi.

2020-yil 7-dekabr kuni Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta‘minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samardorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon sud tizimida yetarli bilim va hayotiy tajribaga ega bo‘lgan munosib kadrlarni tanlash va lavozimga

tayinlashda hamda sudyalar faoliyatini xolis baholash jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga zamin yaratdi.

Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish va sudyalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida 2021-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud organlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimizda tergov faoliyatida «Inson qadri uchun» degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanganligi inobatga olinib, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va zamon talablariga javob beradigan tergov sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini tubdan oshirish, Yangi O'zbekiston sharoitida jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, ushbu yo'nalishga ilg'or xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 2022-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Zero, chinakamadolatli sud tizimini shakllantirish vaadolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqaligina xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, suddan, pirovardida esa davlatdan rozi bo'lishiga erishish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish, qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash mumkinligi hech kimga sir emas.

2022-yil 20-dekabrdan Prezidentimiz murojaatnomasida yurtimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish masalalarga alohida to'xtalib, erishilgan natijalar va kelgusidagi vazifalar haqida so'z yuritilib, davlat hisobidan bepul ta'minlanadigan advokatlarni elektron tanlash tizimining to'liq ishga tushirilishini ta'minlash, qisqa muddatda huquq-tartibot idoralarini yangicha ishlashga o'rgatadigan, odil sudlov sifatini oshiradigan tizim yaratish, odamlarimizning joylarda sudma-sud sarson bo'lib yurishlariga barham berish uchun adolatli hukm va qaror chiqarish bo'yicha viloyat sudlarining vakolati va mas'uliyatini oshirish, tintuv o'tkazish, telefon so'zlashuvini eshitish va mulkni xatlashga sanksiyani prokurordan sudga o'tkazish, tergov sifatini oshirish, tergov shaxsni ayblash uchun emas, jinoyatni fosh etish orqali haqiqatni aniqlash uchun ishlash tizimiga o'tish, sudda ishlarni ko'rishda qatnashadigan alohida prokurorlar korpusi shakllantirish, jinoyat ishi faqat ayblov xulosasi bilan emas, balki himoyachining fikri bilan birga qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish, ayblanuvchining himoyachidan voz kechishi bo'yicha har bir holat prokuror, sud tomonidan sinchiklab o'rganiladigan tizimni joriy qilish, vaqtincha ushlab turish joylarida inson huquqlari buzilishi oldini olish maqsadida joylarga olib kelingan barcha shaxslarni hisobga olishning onlayn tizimini joriy etish va yuzni tanish uskunasi o'rnatish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida ma'muriy sudlar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, bu borada xalqaro tijorat sudini O'zbekistonda tashkil qilish bo'yicha ham amaliy ishlar boshlash yuzasidan aniq takliflar va ko'rsatmalar berilgandi.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, 2023-yil 16-yanvarda Prezidentimiz tomonidan imzolangan ikkita tarixiy hujjat, ya'ni "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon va ushbu Farmon ijrosini samarali ta'minlash maqsadida imzolangan "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmon, murojaatnomada bildirilgan takliflarning ijrosini amalda ta'minlashga qaratilgan.

Farmonga ko'ra, 2023–2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan

yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqladi va "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakamadolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish,adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalar siyemosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish, fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish, sudyalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg'otish ustuvor vazifalari etib belgilandi.

2023-yil 30-apreldagi umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud-huquq sohasi bo'yicha "Miranda qoidasi": shaxsni ushslash chog'ida uning huquqlari va nima sababdan ushlangani sodda tilda tushuntirish berish shartligi, "Xabeas korpus" instituti: shaxs sudning qaroriga qadar ko'pi bilan 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi, o'lim jazosi taqiqlanishi, shaxsning sudlanganligi va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklashga asos bo'lishi mumkin emasligi, mahbuslarga nisbatan insoniy munosabat va ularning qadr-qimmati ta'minlanishi shartligi, ma'muriy, fuqarolik, iqtisodiy, jinoiy javobgarlik va boshqa yo'nalishdagi ishlarni ko'rib chiqishda insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralar – qonuniy maqsadga erishish uchun

yeterli bo‘lishi hamda shaxsga imkon qadar yengillik yaratishi kerakligi, sudning qarorisiz hech kim uy-joyidan mahrum qilinmasligi kerakligi, imorat buzilishga tushganda buzishdan oldin uning qiymatiga mos kompensatsiya to‘lanishi shartligi, uy-joyga yoki shaxsning boshqa mol-mulkiga uning ruxsatisiz kirish, ularni ko‘zdan kechirish va tintuv o‘tkazishga faqat qonunda belgilangan holat va tartibda yo‘l qo‘yilishi haqidagi qat’iy normalar kiritildi.

O‘z navbatida, Konstitutsiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan hujjat bo‘lishi, ya’ni uning normalarini sudlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadida, bu masala yuzasidan Oliy sud Plenumining qarori qabul qilindi.

Sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiq etish, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, «Xabeas korpus» institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar aynan «Inson qadri uchun» g‘oyasini amalga oshirishga qaratilgan.

Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash sudlar zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi. Har bir ish jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rilib, inson taqdirini hal qilishda chuqur ma’suliyat bilan qonuniylik va insonparvarlik nuqtai-nazaridan yondashilmoqda.

Darhiqiqat, bugun yurtimizda olib borilayotgan barcha yo‘nalishdagi islohotlarning markazida inson omili turibdi. Bu hayotiy haqiqatni Przidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasidagi **“Inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaati islohatlarning bosh maqsadi etib belgilandi”**-deb, bildirgan so‘zlari ham isbotlab turibdi.

Zero, islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan har bir insoning orzularini ro‘yobga chiqarish hamda uning uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishdan iborat ekan, har birimiz bu borada zimmamizdagi ulkan mas’uliyatni to‘la his etib, mas’uliyatli vazifalarni sidqidildan, halol va vijdonan bajarishga, odil sudlovnii faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga

oshirishga, xalqimiz va Prezidentimiz oldida bergan qasamyodimizga hamisha sodiq qolishga va'da bergenligimizni unutmasligimiz, shu ezgu maqsadlarga xizmat qilishni faoliyatimizning asosiy mezoniga aylantirib, daxldorlik hissi bilan mehnat qilishimiz darkor.

Bu esa jinoyat va huquqbazarliklar soni kamayishiga, odamlarda huquqiy ong, huquqiy madaniyat oshishiga, bevosita xalq manfaatlarini ro'yobga chiqarishga, uning turmush darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bunga majburiyat deb emas, aksincha kundalik faoliyat va hayot tarzi sifatida qarash talab qilinadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2023;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi //Xalq so'zi, 2020-yil 20-dekabr;
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1996, 1-songa ilova;
4. O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan XMTning konvensiyalari. –T.:Akademnashr, 2017, 384-bet.